

TARBIYACHILARNING METAKOGNITIV QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH

Moxiraxon Bozorboyeva Shavkatbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti tyutori

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida tarbiyachilarning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, maktabgacha ta'lim, metabolizm jarayon, metakognitiv tajriba, metakognitiv maqsad.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqatgina bilim olishlari emas, balki o'z fikrlash jarayonlarini boshqarish va nazorat qila olish qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, metakognitiv strategiyalar ta'lim samaradorligini oshirishning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Metakognitsiya — bu shaxsning o'z bilish jarayonlari haqida xabardorligi va ularni boshqarish qobiliyati bo'lib, o'quvchilarga o'rganish faoliyatini rejalashtirish, kuzatib borish va natijalarni baholash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar ham metakognitiv yondashuvlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, Prezidentning “O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni (2017-yil 7-fevral) va “O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PF-5847-son Farmoni (2019-yil 8-oktabr)da talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik jarayonlarni takomillashtirish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi islohotlar maktabgacha ta'lim bosqichiga ham katta e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, bolalarning kognitiv (bilish) faoliyatini rivojlantirish orqali ularni maktabga tayyorlash muhim pedagogik vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayonda didaktik tizim orqali bolaning mantiqiy tafakkuri, e'tibor, xotira va kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

“Metabilish” tushunchasi fanga ilk bor Djon Fleyvell tomonidan 1976 yilda kiritildi. Uning fikricha, insonning bilish jarayonlari haqidagi umumiy bilimlar majmuasini nazorat qilishga undaydigan bilimlar sohasiga metabolizm sohasi deyiladi. Dj. Fleyvell metabolizmning 4 komponentini ajratadi: metakognitiv bilimlar, metakognitiv tajriba, metakognitiv maqsad, metakognitiv strategiya.

Ingliz olimi A. Braun ta'kidlashicha, metabolish – bu inson tomonidan o'zlashtirilgan o'zining bilimlari to'g'risidagi bilimdir. Olima metabolishni ikki kategoriya asosida o'rganishni tavsiya etadi:

1. Bilish to'g'risidagi bilim — faoliyat majmui bo'lib, ongli ravishdagi kognitiv xatti-harakat va qobiliyatlarni boshqaruvchi refleksiv jarayondir;
2. Bilish regulatsiyasi — didaktik jarayonlarda bilishga intilish hissini muvofiqlashtiruvchi xatti-harakatlar va faoliyat majmuasi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni maktabga tayyorlashda didaktik jarayonga metakognitiv metodlarni qo'llash va pedagogik tizimni oqilona tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metakognitiv strategiyalar — bu shaxsning o'z fikrlash jarayonini ongli ravishda nazorat qilish, rejalashtirish va baholash qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, talaba yoki o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki bilimni qanday o'rganayotganini ham tushunadi va uni boshqarishga harakat qiladi.

Metakognitsiya ikki asosiy komponentdan tashkil topadi:

birinchisi, metakognitiv bilim, ya'ni shaxsning o'z bilim darajasi va o'rganish usullari haqida xabardorligi;

ikkinchisi esa metakognitiv nazorat, ya'ni o'quv faoliyatini rejalashtirish, kuzatib borish va natijalarni baholash jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotlarda metakognitiv strategiyalar uch asosiy turga ajratiladi: rejalashtirish (o'quv jarayonidan oldin maqsad qo'yish va to'g'ri yondashuv tanlash), monitoring (o'qish yoki topshiriq bajarish jarayonida tushunish darajasini kuzatish), va baholash (natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish).

Masalan, talaba matnni o'qishni boshlashdan oldin qanday strategiya bilan o'qishini belgilasa — bu rejalashtirish;

o'qish davomida tushunmagan joylarini belgilab chiqsa — bu monitoring;

dars oxirida esa asosiy g'oyalarni yozib, o'zini baholasa — bu evaluatsiya hisoblanadi.

Metakognitiv strategiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalari rivojlanadi, reflektiv fikrlash shakllanadi va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish imkoniyati kuchayadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, metakognitiv ko'nikmalarga ega bolalar maktabga o'qishga qabul qilinganch, ularning intellektual qobiliyatlari yuqori bo'lishi aniqlangan. Metakognitiv ko'nikmalar bolaning fikrlash darajasini o'stiradi, metabolish jarayonlarini rivojlantiradi.

Bunda topshiriqlarni bajarish mobaynida bola diqqatni jamlashni o'rganadi, ma'lumotlarni saralash. Maktabgacha ta'limda bolalarda metakognitiv ko'nikmalar (o'z-o'zini nazorat qilish, mushohada yuritish, refleksiya)ni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash asosida bolalarni maktabga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.ay oladi, o'zining faoliyatiga baho beradi.

Maktabgacha ta'limda didaktik mashg'ulotlarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari 2017- 2020

yillarda tashkil etilib, dastlabki tajriba-sinov materiallari tayyorlandi. Bu materiallarda quyidagilar ko'zda tutildi:

1) Mualliflik texnologiyalari va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlar yordamida bolalarning "Ilk qadam" Davlat dasturi asosidagi kompetentsiyalarini rivojlantirish, o'zaro hamkorlik muhitida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etildi.

2) Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning qiziqishlari, mayllari o'rganildi. Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan avval maktabgacha ta'lim pedagoglari bilan individual tarzda suhbatlar o'tkazilib, ularni qiziqtirgan savollarga aniqlik kiritildi hamda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga doir ilmiy-amaliy maslahatlar berildi.

Maktabgacha ta'lim pedagoglari tajriba-sinov avvalida va sinovdan so'ng amalga oshiriladigan nazorat shakl va metodlari bilan tanishtirildi va natijalarni jamlash va umumlashtirish bo'yicha yakdil xulosaga kelindi.

Metakognitiv strategiyalarni tatbiq etish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchilar bilimlarni chuqur o'zlashtirish bilan birga, mustaqil va refleksiv fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Bu esa ularning shaxsiy ta'limiy faoliyatini ongli boshqarish, muammolarni hal etishda ijodiy yondashish va zamonaviy ta'lim tizimida raqobatbardosh shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi PQ-4884-son qarori. 2020-yil 6-noyabr.
2. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
3. Qodirova Z. va boshqalar, Maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2020.
4. Flavell J.H. (1976). Metacognitive aspects of problem solving. // *The nature of intelligence*. Hillsdale / Edited by L.B. Resnick N.Y.: Erlbaum, 1976.- p. 231-235.
5. Safarova R.G. Kognitiv Pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent: "Science and innovation", 2024. – 186 bet.